

JOY, UROCHISHE, FATSIYA TUNUNCHALARI HAQIDA MA'LUMOT

Ziyoydinov Hasanboy

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Abdusattorova Nafisabonu Anvarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu maqola landshftning tipologik birliklari hisoblangan joy, urochishe va fatsiya tushunchalari haqida ma'lumot beradi va ularning bir birdan farqi, ularning joylashgan regionlarini atroflicha yoritadi.*

***Kalit so'zlar:** joy, urochishe, fatsiya, tipologik birlik, mezorelyef, komponent, tabiiy hudud, tog' jinsi.*

KIRISH

Bizning landshaftlar haqidagi dastlabki tushunchamiz geografiya, tarix va madaniyat kabi turli omillar ta'sirida shakllanib kelgan. Bizning tasavvurimizdagi landshaft yam-yashil o'rmonlardan tortib, bepoyon cho'llargacha atrofimizdagi manzaralar hisoblanadi. Landshaft deganda yer maydonining ko'rinadigan belgilari tushuniladi va tabiiy va inson tomonidan yaratilgan elementlarni ham o'z ichiga oladi. U tog'lar, o'rmonlar, daryolar va tekisliklardan tortib yo'llar, binolar va shaharlargacha bo'lgan hamma narsani o'z ichiga oladi. Landshaftni tushunish juda muhim, chunki u atrofimizdagi go'zallik va xilma-xillikni qadrlashimizga yordam beradi hamda odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rgatadi. Ular yerning nafaqat jismoniy xususiyatlari, balki madaniy, ekologik va estetik ahamiyatga ham ega. Biz landshaftlar haqida fikr yuritar ekanmiz, biz ko'pincha daryolar, tog'lar va o'rmonlar kabi tabiiy elementlarga e'tibor qaratamiz. Aslida Landshaft -nemischa: "Land" — yer, shaft-o'zaro aloqadorlik, birikkanlik — tipologik tabiiy komplekslarni umumlashtiruvchi tushuncha hisoblanadi. Geologik zamini, relyefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik turkumi, hayvonot dunyosi, gidrologik rejimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo'lgan hududdir. Landshaftning tashkil topishi va rivojlanishida u yoki bu komponent yetakchi o'rinni egallaydi landshaftni chuqur o'rganib borganimiz sari uni osonlashtirish uchun tipologik birliklarga ajratamiz. Landshaftlarning hosil bo'lishi va turli morfologik qismlarga bo'linishida geologik-geomorfologik omillarning ham ahamiyati kattadir. Bular tog' jinslarining tarkibi, ularning yotish tartibi, yangi tektonik harakatlarning jadalligi, relyef kabilardir. Landshaftning organik dunyosini asosan o'simlik, hayvonot va mikroorganizmlar tashkil qiladi. Ularning yig'indisi, ya'ni tirik modda landshaft tashkil qiluvchi eng faol omil hisoblanadi. Landshaftdagi moddaning biologik aylanishi jarayonida organik modda o'zidan energiya ajratib, organik birikmalarning

minerallanishi ro‘y beradi. Hozirgi hayot asosan moddaning biologik aylanishi shaklida bo‘lib, kimyoviy unsurlarning ko‘chib yurishining eng asosiy xususiyatlarini belgilaydi. Landshaftlarning barcha komponentlari va ularning xususiyatlari uzluksiz rivojlanib, o‘zgarib turadi. Landshaftlarni o‘rganishda eng kichigidan boshlab yuqorilab boramiz landshaftning eng kichik birligi fatsiya hisoblanadi. "Fatsiya" atamasi landshaftshunoslikka L.G.Ramenskiy (1935) va L.S.Berg (1945) tomonidan olib kirilgan, lotincha "facies", ya'ni "tashqi qiyofa" ma'nosini anglatadi. Fatsiyalar geotizimlar ichida eng ochig‘i hisoblanadi va faqat qo‘shni fatsiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi sharoitidagina shakllanadi. Fatsiya asosan — bir xil tog‘ jinslariga, relyefga, tuproqqa, namlikka, mikroiqlimga, o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega bo‘lgan eng kichik tabiiy hududiy kompleksdir. Masalan, qayir fatsiyasi, o‘zan fatsiyasi, toshli qayir, gilli qayir fatsiyalari. Ular asosan daryo havzalari qirg‘oqlari va namik bor joylarda kichik hududlarda shakllanadi. Fatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, u o‘zidan katta bo‘lgan boshqa geotizimlarga nisbatan tashqi kuchlar ta’siriga beriluvchan va tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Buning sababi shundaki, fatsiya doirasida uning komponentlari orasidagi aloqadorlik va bog‘liqlik boshqa geotizimlardagidan ko‘ra mo‘rtroq, tez shikastlanuvchan, tashqi omillar ta’siriga chidamsizroq ekanligidadir. Shuning uchun ham insonning xo‘jalikdagi faoliyatini geotizimlarga ta’siri va uning o‘ziga xos oqibatlarini dastavval fatsiyalar miqyosida ro‘y beradi. Jumladan, bunday o‘zgarishlar fatsiyalarning eng harakatchan, o‘zgarishga moyilroq bo‘lgan biotik komponentlarida ko‘zga tashlanadi va keyinchalik ularning boshqa xususiyatlari: mikroiqlimi, namlanishi, issiqlik tartibi kabilarni o‘zgarishiga olib keladi. Geologik-geomorfologik shart-sharoitlari ko‘pincha o‘zgarmay qoladi. Shu sababli fatsiyalarga bo‘ladigan inson ta’siri to‘xtatilsa, o‘zgargan fatsiyalar yana o‘zining avvalgi holatiga qaytishga harakat qiladi. Fatsiyalar tasnifi bilan shug‘ullanganlardan biri B.B.Polinovdir (1956). U kimyoviy unsurlarning migratsiyasi shart-sharoitlarini tahliliga asoslagan holda fatsiyalarning uchta asosiy turini ajratadi. Bular: elyuvial, superakval, subakval fatsiyalardir. Landshaftlarning morfologik qismlari ichida eng asosiylaridan yana biri urochishedir. Urochishe bir mezorelyefda joylashgan tabiiy hududiy kompleks bo‘lib, u genetik va dinamik jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lgan fatsiyalar tizimidan iboratdir. Urochishelar landshaftda egallagan maydoni va tarqalishiga qarab asosiy (yoki hukmron) hamda ikkinchi darajali urochishelarga bo‘linadi. Asosiy urochishelar landshaftlarning morfologik strukturasi belgilab berishi bilan birga keng ko‘lamda tarqalganligi bilan, ikkinchi darajali urochishelar esa tarqalish ko‘lami kamligi bilan tavsiflanadi. Urochishelar o‘zining ichki tuzilishiga qarab oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. Oddiy urochishelarda mezorelyefning har bir qismi faqat bitta fatsiya bilan band bo‘ladi.

Murakkab urochishelar tarkibida esa mezorelyefning bir qismida fatsiyalar tizimi yoki urochishecha (podurochishe) joylashgan bo‘ladi. Umuman olganda, urochishelar tasnifi xuddi fatsiyalar tasnifi kabi puxta va har tomonlama mukammal ishlab chiqilmagan. Buning asosiy sababi landshaftlarning morfologik qismlarini xaritaga tushirish tajribasi ham kam ekanligidir. Landshaftlarning morfologik qismlari ichida eng kattasi joy (mestnost) deb ataladi. Joy deganda, ma’lum landshaft uchun xos bo‘lgan urochishelar yig‘indisining alohida varianti tushuniladi. Bundan tashqari joy— maydonlar majmuasidan iborat bo‘lgan tabiiy hududiy kompleksdir. Masalan, yoyilmalarning yuqori, o‘rta va quyi qismlari, tog‘larning suvayirg‘ichi, yonbag‘irlari va boshqalar. Ma’lum bir hududdagi joylar yig‘indisi landshaftni tashkil qiladi. Masalan, cho‘l landshafti — qumli, gilli, toshli, taqirli joylardan iborat. Shunday qilib landshaft — joylar majmuasidan, joylar — maydonlar majmuasidan, maydonlar esa fatsiyasidan iborat. Yoki landshaftlar — joylarga, joylar — maydonlarga, maydonlar — fatsiyalarga bo‘linar ekan. Geografik adabiyotda "joy turi" degan atama ham tez-tez uchrab turadi (F.N.Milkov, 1956). Joy turlari landshaftlarning morfologik qismi hisoblanmaydi-ku, ammo u ham xo‘jalikda foydalanishi nuqtayi nazaridan qaraganda, nisbatan bir xil bo‘lgan yirik tabiiy hududiy kompleksdir va urochishelarning majmuidan iboratdir.

XULOSA

Landshftlarning komponentlari bir-birini to‘ldiruvchi va komponentlar o‘zaro aloqada bo‘ladi. Agar ularning biror komponentlarida o‘zgarishlar sodir bo‘lsa, landshftning tashqi tuzilishida ham o‘zgarish bo‘ladi ya’ni landshaftning tipologik birligi umuman yo‘q bo‘lib ketishi yoki yangisi hosil bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, landshaft o‘zidan kichik bo‘lgan komplekslardan, ya’ni morfologik qismlardan tashkil topgan murakkab tabiiy hududiy kompleksdir. Landshaftning har bir morfologik qismi ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan kompleks deb qaralishi bilan birga, ular ayrim o‘xshash belgilarga asoslangan holda tasnif qilinishi mumkin, ya’ni tipologik birlik sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ramazonov O., Yusupbekov O. “Tuproqshunoslik va dehqonchilik”, Darslik. T: Sharq, 2005 й. - 270 b.
2. SH.S.Zokirov, X.R.Toshov. Landshftshunoslik. Toshkent - Turon Zamin Ziyos.
3. K.M.Boymirzayev, B.A.Kamolov. Landshaftshunoslik asoslari uslubiy qo‘llanma.
4. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. Zokirov SH.S. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik. “Universitet”, 1998.
6. Baratov P. va boshqalar. O‘rta Osiya tabiiy geografiyasi. Toshkent, 2002.

7. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантиришнинг Меъёрий-Ҳуқуқий Асослари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences Scientific Journal*, 266.
8. Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. *Экономическое развитие и анализ*, 1(8), 109-114.
9. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятига Инновацион Технологияларни Жорий Этиш. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 178-186.
10. Chen, Z., Xie, M., Zu, Q., & Abdufattokhov, S. (2023). *Electrical Automation Intelligent Control System Based on Internet of Things Technology*. *Electrica*, 23(2).
11. Abdufattokhov, S., Mahamatov, N., Ibragimova, K., Gulyamova, D., & Yuldashev, D. (2022). Supervisory optimal control using machine learning for building thermal comfort. *Operations Research and Decisions*, 32(4).
12. Mukhitdinova, K. A., & Sayfutdinova, N. F. (2022). Status of development of innovative activities of industrial enterprises. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 363-368.
13. Alisherovna, K. (2019). Investment support for the activities of motor transport enterprises and their effective utilization. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(2), 465-471.
14. Mukhitdinova, K. (2022). Increasing the Efficiency of Investment Activities of Automotive Enterprises. *International Finance and Accounting*, 2022(1), 20.
15. Mukhitdinova, K. A. (2020). Analysis of Investment Attractiveness of The Enterprise. *Экономика и социум*, (4 (71)), 73-76.
16. Khuzhakulov, R., Abdimuminov, E. F., & Nabiev, E. S. (2020). Influence of Filling Soil from Pipe Side on Pipe Strength. *Central Asian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 1(10), 1-4.
17. Nabiyeu, E. (2022). Complexities of Foreign Policy and the Role of Turkey in the System of International Relations. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(3), 416-420.
18. Murtazaev, E. N. (2022). About the compositional structure of plot of war works. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 98-103.
19. Okbaeva, N. (2022, April). Mavzu: Mathematics Darslarini Kuzatis Tahлил Yilish. In *E Conference Zone* (pp. 188-192).